

"MUFRADOT" - MUAMMO JANRINING BADIY- NAZARIY ASOSLARI

Akramova Mushtariybonu Nazirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTASIYA : Ushbu maqolada Alisher Navoiyning mumtoz adabiyotdagi muhim janrlardan biri — muammoga bag'ishlab yaratgan "Mufradot" asarining badiiy-strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarda qo'llanilgan harfiy san'atlar, muammo yechimini shakllantiruvchi arabiy yozuv tizimi, talmeh, tamsiya, tabdil kabi badiiy usullar va ularning mazmuniy vazifalari yoritiladi. Muammo janrining jahon adabiyotidagi anagramma, akrostix kabi harfiy o'yinlarga yaqin jihatlari, shuningdek, Navoiy tomonidan janrning nazariy asoslari, ifoda shakllari va yechimni topish metodikasi mukammal ishlab chiqilgani ko'rsatib beriladi. "Mufradot" asarining janr doirasidagi o'rni, unda muammoning ramziy, ko'p ma'noli va murakkab qatlamlarga tayangan holda tuzilishi, uning o'zbek mumtoz poetikasidagi ahamiyati maqola markazida ilmiy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari muammo janrining tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos kompozitsion yechimlari va bugungi adabiyotshunoslikda qayta talqin qilinayotgan qimmatini haqida yangi ilmiy qarashlarni taqdim etadi.

KALIT SO'ZLAR: muammo, Mufradot, talmeh, tamsiya, tabdil, strukturaviy birlik, harfiy san'at.

O'zbek mumtoz adabiyoti janrlarining shakllanishi, rivoji va takomili ko'plab buyuk ijodkorlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ulardan eng yirigi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. U nafaqat adabiyot va tasavvuf maktabining asoschisi, balki badiiy janrlarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratgan zabardast mutafakkirdir. Navoiyning "Mufradot" asari muammo janrini nazariy asoslash, uning tur va shakllarini belgilash hamda yechim tamoyillarini tartiblashda alohida ahamiyatga ega.

Muammo — mumtoz she'riyatning murakkab janrlaridan bo'lib, unda harfiy ishoralar, yashirin ma'no, ramziy qatlam, an'anaviy yozuv tizimiga xos

badiiy o‘yinlar asosiy o‘rin tutadi. “Mufradot” ana shu murakkab jarayonning nazariy manbasi sifatida qadrlanadi.

Alisher Navoiyning muammo janri nazariyasiga bag‘ishlangan asari «Mufradot» deb atalib, hijriy 890 – milodiy 1485-yilda yozib tugallangan. Navoiy asarning kirish qismida o‘z risolasining nomlanishi haqida shunday yozadi: “Ва чун ин муҳаққар дар ин фан ба мушобиҳаи «алиф» ва «бе» буд, мусаммо ба муфрадот намуд. (Mazmuni: Bu kamina ushbu fanda «alifbe» misolida bo‘lganligim uchun (risolaning) otini «Mufradot» deb nomladim). Ma'lumki, alifboni o‘rganishda harflarning yakka shakllari va birdan o‘ngacha raqamlarning yozilishi «Mufradot» deyiladi. Bundan tashqari, risolada muammo qoidalariga misol sifatida keltirilgan 121 ta muammoning hammasi fard shaklida, fard so‘zining ko‘plikdagi shakli mufradotdir.

Risolaning yozilish tarixi haqida «Xamsat ul-mutahayyirin»da ham ma'lumot beriladi. Unda aytilishicha, bir kuni Alisher Navoiy o‘zidan avval muammo haqida yaratilgan asarlar va ulardagi murakkabliklar haqida o‘ylab o‘tirganida, uning huzuriga Abdurahmon Jomiy tashrif buyuradi. Navoiy unga muammoga doir sodda va oddiy xalq ommasi uchun tushunarli bo‘lgan asar yozmoqchi ekanligini aytadi. Shunda Jomiy o‘zi ham anchadan beri shu haqda o‘ylab yurganini ta’kidlab, qisqa muddat ichida «Risolayi muammoyi manzum» asarini yaratadi va Alisher Navoiyga ko‘rsatadi. Navoiy asarning ancha murakkab (xalq ommasi uchun tushunarsiz) ekanligini ko‘rib, o‘zi «Risolayi muammo» asarini yozadi va Jomiyga tuhfa qiladi. Jomiy asarni yuqori baholab, o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik sifatida tavsiya etadi

“Mufradot” asari shunchaki umumiy bir janrga asoslangan asargina hisoblanib qolmasdan, jahon adabiyotiga muammo janriga muvofiq keluvchi san’atlar bilan o‘xshash taraflari, farqli jihatlari hamda yaratilish uslubining turli komponentlardan iborat ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda jahon adabiyotining yashiringan imzo, Anogramma, akrostix va boshqa nomlar bilan yuritiluvchi harfiy o‘yinlar san’atining tutgan o‘rni haqida turli nazariy qarashlar yuritilgan. Alisher Navoiyning muammo janriga bag‘ishlangan “Mufradot” asarida muammoning yechimi sifatida ko‘p hollarda arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi harflari asnosida yuzaga kelishi tadqiq

etiladi. “Umumiy qilib aytganda dunyo hamjamiyatining muammo janrini ikki toifaga bo‘lishi, bular:

1. Topishmoqlar;

2. Asarlarda hahrflarning yashirilishi

kabilarga bo‘linishi yuzasidan, Navoiy yashab turgan muhit va ijtimoiy ong shaklidan kelib chiqib muammo janrining ikkinchi toifasiga muvofiq keluvchi janrning amaliy natijalariga muvofiq o‘zining “Mufradot” asarini yaratgan.

“Mufradot” asarining tarkibi

“Mufradot” muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat.

Asarda muammo amallari uch qism – **a'moli tas'hiliy** (osonlashtirish amallari), **a'moli tahsiliy** (hosil qilish amallari) va **a'moli takmiliy** (mukammallashtirish amallari)ga bo‘linadi. **A'moli tas'hiliy**ning amallari to‘rtta – intiqod (saralash), tahlil (hal qilish, ajratish), tarkib (biriktirish) va tabdil (o‘zgartirish). Intiqod amalida so‘zning turli harflarini saralash orqali muammo hosil qilinadi. Masalan, ODAM ismida bosh harflarni saralash bilan bog‘liq muammo keltirilgan bo‘lib, u quyidagicha: Dilimizni yana axtarmoqchi bo‘lsang,
Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir
Bu muammoni echish uchun oh, dard, mehnat so‘zlarining bosh harflari olinsa, **ODAM** ismi kelib chiqadi.

A'moli tahsiliy (hosil qilish amallari) esa sakkizta bo‘lib, ularga tansis va taxsis (ochiq qilish va xoslashtirish), tasmiya (nomlash), talmeh (nazar tashlash), tarodif va ishtirok (mosini va o‘xshashini olish), kinoyat (yashirish), tas'hif (yozuvda xato qilish), istiora, tashbih va hisob qoidalari kiradi. Masalan, tasmiya qoidasi bo‘yicha, arab alifbosidagi harflar nomini bo‘g‘in shaklida aytib, undan harf shaklini olish yo‘li bilan yoki harf shaklini keltirib, uning nomini bo‘g‘in shaklida olish yo‘li bilan ham nom hosil qilinadi.

Muammoni echish amallarining uchinchi **A'moli takmiliy**, ya'ni mukammallashtirish amallari deb atalib, uning o‘zi yana 3 turga bo‘linadi: ta'lif, isqot, qalb. Ta'lif (ulash)ga ko‘ra,

misradagi ba'zi soʻzlarning bir-biri bilan qoʻshilishi natijasidayashiringan ism hosil qilinadi. Masalan:

Mening oyim jom (qadah)ni dahan (ogʻzi) tomon olib borsa,

Labidagi qatralarni toza qiladi.

Bunda “jom” soʻzi “dahan” (ogʻiz) tomonga, ya'ni “d” tomonga olib boriladi va “jomid” soʻzi hosil boʻladi, ikkinchi misrada nazarda tutilgan labdagi qatra, ya'ni nuqta tozalansa (olib tashlansa), “Homid” ismi kelib chiqadi.

Asarda shu tarzda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bogʻliq holda 121 ta muammo va uni echish usullari koʻrsatib beriladi. Risolada muammoning turli uslub qoidalari yuqorida koʻringanidek, ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi uchun asar oʻz davri va undan keyin ham keng shuhrat qozondi.

XULOSA

“Mufradot” oʻzbek mumtoz adabiyoti poetikasida muhim nazariy manba boʻlib, muammo janrining shakllanish, takomillashish va amaliy qoʻllanish jarayonlarini ilmiy asoslab bergan asardir. Harfiy sanʼatlarning chuqur badiiy mazmun bilan uygʻunlashuvi, yechimning arab yozuvi tizimi asosida berilishi janrning murakkab, ammo nihoyatda jozibadorligini namoyon qiladi. Navoiy tomonidan yaratilgan muammo namunalarining bugungi adabiy tafakkurda ham oʻrganilishi ushbu janrning badiiy-estetik ahamiyati va poetik kuchi hali-hanuz oʻz qadrini yoʻqotmaganini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna “Alisher Navoiy muammolarida shakl va mazmun masalasi”. Maqola. “The innovator in science –2022

2. АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ШАРҚ РЕНЕССАНСИ III ХАЛҚАРО СИМПОЗИУМ МАТЕРИАЛЛАРИ

"JAVOIR-ILM-NASHR" TOSHKENT – 2024

3. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik /darslik -T.: "Tamaddun", 2019.

4. To'xtaeva, D. "Navoiy 'Mufradot' asarining badiiy-lisoniy xususiyatlari." Innovatsion akademik tadqiqotlar jurnali, (2023).